

ZAMONAVIY BOSHQARUV ISLOHOTLARI SAMARADORLIGI: SOTSILOGIK MONITORING MASALALARI

Mamirova Feruza Saylixonovna,
O‘zMU ijtimoiy fanlar fakulteti 1-bosqich magistri

Annotasiya: Ushbu maqolada zamonaviy boshqaruv islohotlari samaradorligini baholashda sotsiologik monitoringning o‘rni tahlil qilinadi. Sotsiologik monitoring islohotlarning real natijalarini aniqlash, ularning jamiyat tomonidan qabul qilinish darajasini baholash va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etadi. Aholining islohotlarga bo‘lgan munosabati, davlat xizmatlari sifati, shaffoflik va innovasion texnologiyalarni joriy etish monitoringning asosiy mezonlari sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy boshqaruv, islohotlar, samaradorlik, sosiologik monitoring, fuqarolik jamiyati, shaffoflik, texnologiyalar, eelektron hukumat, ijtimoiy tahlil, davlat xizmatlari, boshqaruv tizimi.

ВОПРОСЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА ЭФФЕКТИВНОСТИ РЕФОРМ СОВРЕМЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Мамирова Феруза Сайлихоновна,
1 курс магистратуры, факультет социальных наук, Национальный
университет Узбекистана

Аннотация. В данной статье анализируется важность социологического мониторинга при оценке эффективности реформ современного управления. Социологический мониторинг предоставляет необходимую информацию для определения реальных результатов реформ, оценки уровня их принятия обществом и улучшения процессов управления. Отношение населения к реформам, качество государственных услуг, прозрачность и внедрение инновационных технологий рассматриваются в качестве основных критериев мониторинга.

Ключевые слова: современное управление, реформы, эффективность, социологический мониторинг, гражданское общество, прозрачность, электронное правительство, социальный анализ, государственные услуги.

THE EFFECTIVENESS OF MODERN GOVERNANCE REFORMS: ISSUES OF SOCIOLOGICAL MONITORING

Mamirova Feruza Saylikhonovna,
1st year master's degree, Faculty of Social Sciences, National University of
Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the role of sociological monitoring in assessing the effectiveness of modern governance reforms. Sociological monitoring provides the necessary information to determine the real results of reforms, assess the level of their acceptance by society, and improve governance processes. The population's attitude to reforms, the quality of public services, transparency, and the introduction of innovative technologies are considered as the main criteria for monitoring.

Keywords: modern governance, reforms, effectiveness, sociological monitoring, civil society, transparency, technologies, e-government, social analysis, public services, governance system.

Kirish. Davlat boshqaruv tizimini takomillashtirishda, jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan qarorlar qabul qilish muhimdir. Bunda aholining fikrini hisobga olgan holda rivojlanish strategiyasini belgilab olish istiqbolli mazmun kasb etadi. Tabiiyki, bu boshqaruv islohotlari samaradorligi monitoringi masalasini dolzarblashtiradi. Ijtimoiy kuzatish doirasida aholi davlat boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlarga o‘z munosabatini, islohotlarning amalga oshirish darajasini va ular bilan bog‘liq muammolarni aniqlash amalga oshiriladi.

Asosiy qism. Zamonaviy boshqaruv islohotlarining samaradorligini baholashda fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchi muhimdir. Bunda sosiologik monitoring natijalari hukumat va tegishli idoralar islohotlarni to‘g‘ri yo‘nalishda amalga oshirayotganligini aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari,

zamonaviy texnologiyalar yordamida sotsiologik monitoringni avtomatlashtirish va ma'lumotlarni real vaqtda tahlil qilish mumkin. Shu manoda raqamli platformalar va sun'iy intellektga asoslangan tahlil tizimlari yordamida davlat boshqaruvi islohotlarining samaradorligini aniqroq o'lchash mumkin [1].

Sotsiologik monitoring islohotlarning uzoq muddatli ta'sirini baholash imkonini ham beradi. Gap shundaki, monitoring amaldagi islohotlar iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir qilganini aniqlaydi. Ayniqsa, yoshlar, tadbirkorlar, davlat xizmatchilari va kam ta'minlangan qatlamlarni o'z ichiga olgan turli ijtimoiy guruhlarning islohotlarga bo'lgan aniq munosabati ko'rindi. Boshqacha aytganda, islohotlar turli toifalarga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi.

Sir emaski, islohotlar turli guruhlarga turlicha ta'sir qilishi mumkin. Buni hisobga olish islohotlarningadolatli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Jamiyatdagi muammolarni oldindan aniqlash va tegishli mexanizmlarni ishlab chiqish oson emas. Xususan, islohotlar kutilgan natijalarini bermayotgan taqdirda, boshqaruv tizimiga ma'lum o'zgartirishlar kiritish zarur. Zamonaviy sotsiologik monitoring katta ma'lumotlarni tahlil qilish, prognozlash, ma'lumotlarni toplash va tahlil qilishning yangi usullarini anglatadi. Ushbu usullar boshqaruv tizimining tezkor va aniq qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi [2].

Xalqaro tajriba mazkur sohada ham muhim bo'lib, turli mamlakatlarda sinovdan o'tgan yondashuvlar milliy sharoitlarga moslashtirilishi ko'zda tutiladi. Aytish mumkinki, islohotlar samaradorligini nafaqat ichki, balki xalqaro tajriba bilan taqqoslash orqali baholash yanada oydinlashadi. Shu jihatdan olganda, sosiologik monitoring zamonaviy boshqaruv tizimini rivojlantirishning strategik vositasiga aylandi. Zero, islohotlar natijalarini shaffof baholash, aholining haqiqiy ehtiyojlarini aniqlash imkoniyati oshadi.

Yana bir muhim masala shuki, zamonaviy sotsiologik monitoring orqali boshqaruv tizimida innovasion texnologiyalarni joriy etish darajasi baholanadi. Xususan, elektron hukumat, ayniqsa raqamli xizmatlar va avtomatlashtirilgan tizimlarning aholi kundalik hayotiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Elektron

xizmatlardan foydalanish, avvalo ularga aholining ko‘nikishi darajasi muhim ko‘rsatkichlardan biridir.

Boshqaruv islohotlarining samaradorligini baholashda mahalliy va mintaqaviy farqlarni ham hisobga olish kerak. Chunki iqtisodiy sharoitlar va infratuzilma darajasi turli hududlarda o‘zaro farq qiladi. Sosiologik monitoring natijalari asosida har bir hudud uchun tegishli strategiya ishlab chiqish mumkin. Bunda ishbilarmon doiralarning hududlar aholisi ehtiyojlarini mos tarzda ishlab chiqarishni joriy etishlari istiqbollari va imkoniyatlarini o‘rganish, rejalashtirish va yo‘lga qo‘yishning muhimligini nazarda tutish zarur. Bunda, bir tomondan xususiy sektor va investorlar uchun yaratilgan sharoitlar, ikkinchi tomondan esa byurokratik to‘sislarni kamaytirish, lisenziyalash va ruxsatnomalar berish tartiblarini soddalashtirishni jiddiy o‘rganish talab etiladi. Bu holatda tadbirkorlarning islohotlarga bo‘lgan qiziqishi, ko‘nikishi va qoniqishi favqulodda muhim omil hisoblanadi.

Boshqaruv islohotlarining samaradorligini o‘lchashdagi muhim jihatlardan biri – bu davlat xizmatchilarining faoliyatidir. Darhaqiqat, boshqaruv kadrlari bilimi va ko‘nikmalarini oshirish hamda innovation yondashuvlardan foydalanish monitoring orqali baholanadi. Malakali va tajribali boshqaruv kadrlari islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omillaridan biridir.

Sosiologik monitoring davlatning iqtisodiy islohotlari bilan bog‘liq natijalarni, xususan soliq tizimidagi o‘zgarishlar, investisiya muhitini yaxshilash va kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari maxsus tahlillar orqali o‘rganiladi. Tadbirkorlarning davlat boshqaruvi islohotlariga bo‘lgan munosabati va ular duch kelayotgan qiyinchiliklar monitoring natijalari asosida aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, sotsiologik monitoring zamonaviy boshqaruv islohotlarini ilmiy baholash, ularning ijtimoiy ta’sirini o‘rganish va takomillashtirishning muhim vositasidir. U aholining ehtiyojlarini hisobga olish orqali jamiatning barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Батанов, А. С., Подберезкин, А. И., Зоркальцев, В. И. (2005) Роль институтов гражданского общества и потенциала человеческой личности как факторов повышения ускорения социально-экономического развития России. Москва, ЗАО ЦПИ ЦПИ Дортрехт, 295 с.
2. Бюль, В. Л. (1989) Изменение культуры: к динамической социологии культуры. Общественные науки за рубежом. 3 С, 141-145.
3. Дементьев, В. Е. (2009) Длинные волны экономического развития и финансовые пузыри. Москва: ЦЭМИ РАН, 88 с.
4. Федоренко, Н. И. (2014) Управленческая элита в современном российском обществе (социологический аспект исследования): монография. Ростов-на-Дону, СКНЦ ВШ ЮФУ, 248 с.
5. Грин, К. Б. (1987) Когнитивные модели принятия международных решений и международная стабильность. Системные исследования. 4, 4, 251-267.
6. Грин, К. Б. (1988) Феномен Кондратьева: системная перспектива. Системные исследования, 5, 4, 281-298.